
"Mening yo'lim" loyihasi amalda|To'raobod MFYdagi ichki ko'chalarga asfalt yotqizilmoqda

Yurtimizda "Mening yo'lim" loyihasi doirasida aholi vakillari o'z mahallasida yo'llarini yaxshilash maqsadida tashabbusli loyihalarga ovoz berish orqali mahalliy byudjetning bir qismini taqsimlashda faol ishtirok etishmoqda.

Rishton tumanida ham tashabbusli byudjetning "Mening yo'lim" loyihasi asosida olib borilayotgan ishlar hududlardagi yo'llarni ravon bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Tumandagi To'raobod mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihaning joriy yildagi birinchi mavsumida faol ishtirok etib, o'z tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rin olishiga erishdi.

Mahalladagi ba'zi ichki yo'llarning ta'mirga muhtojligi, yozda chang, qishda loy bo'lishidek mahalla aholisini uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan muammoga mening yo'lim jarayoni yechim bo'ldi.

Ayni kunlarda ushbu mahallaning ichki yo'llarda asfaltlash ishlari olib borilmoqda.

2023-07-29 08:52:11